INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

AYOLLAR ZEBOSI

Karimova Safiya Rasulovna
SamDChTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *XVI asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoira Zebunnisobegim Zahiriddin Muhammad Boburning chevarasi Hindiston podshohi Avrangzeb Olamgirning qizidir. U Hindistonda yashagan. U davr an'anasiga ko'ra fors-tojik tilida ijod etdi. U lirik she'rlar bilan birga odob va axloqqa oid asarlar ham yozgan.*

Kalit so'zlar: *tamaddun, temuriylar sulolasi, boburiylar saltanati, Agra, me'morchilik, Osiyo.*

https://doi.org/10.5281/zenodo.14060845

Аннотация. Восточная поэтесса Зебуннисобегим, жившая и творившая во второй половине 16 века, являлась правнучкой Захириддина Мухаммада Бобура и дочерью индийского падишаха Аврангзеба Оламгира. Она жила в Индии. Согласно традициям той эпохи. Она писала на фарси-таджикском языке. Помимо лирических поэм, она писала также о воспитании и моральной нравственности.

Abstract. Eastern poetess Zebunnisobegim, who lived and wrote in the second half of the 16 th century, was Zakhiriddin Bobur's granddaughter and the daughter of Indian king Avrangzeba Olamgir. She lived in India. According to that epoch's traditions she wrote in Farsi-Tajik language. Besides lyric poems she devoted her books to people's morality and upbringing.

Ключевые слова: цивилизация, династия Тимуридов, царство Бабура, Агра, архитектура, Азия.

Key words: civilization, Timurid dynasty, Babur kingdom, Agra, architecture, Asia.

Turkiylar tamadduni, ya'ni turkiy sivilizatsiya kishilik jamiyati taraqqiyotiga, dunyo ravnaqiga beqiyos hissa qoshgan jahonshumul sivilizatsiyadir. Sharqda Buyuk Xitoy devoridan boshlab, g'arbda to O'rta yer dengizi-yu, Qora dengiz sohillarigacha, shimolda Baykal-Boyko'l qirg'oqlaridan janubda Hind okeani bo'ylarigacha bo'lgan g'oyatda keng hududda turkiy sivilizatsiya tengsiz o'zligini, benazir salohiyatini namoyon etganligi barchaga ma'lum. Ushbu sivilizatsiya silsilasida esa temuriylar sulolasining hamda mazkur sulola davomi bo'lmish boburiylar saltanatining o'rni alohida ekanligi shubhasiz.

XVI asrda buyuk ajdodimiz, shohu shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan buyuk saltanat sharq xalqlari tarixida mangu iz qoldirdi. Agrada qad ko'targan ma'lumu mashhur Toj-Mahal maqbarasi turkiy sivilizatsiya go'zalligining oliy timsoli, betakror me'morchilik durdonasi sifatida butun jahon xalqlari tomonidan boburiylar sha'niga olqishu ofarinlar aytilishiga sabab bo'lib kelmoqda. Boburiylar sulolasiga tegishli yana bir durdona mavjudki, uning ovozasi nafaqat Osiyoda, balki Yevropada ham dovruqlidir. So'z

Boburning beshinchi avlodi bo‘lmish mashhur Avrangzeb Olamgir I ning qizi, otashnafas shoira Zebunnisobegim Sohiba haqida borayotir. Ijodi asrlar osha millionlab muxlislarni maftunu mahliyo qilib kelayotgan tengsiz ijodkor Zebunnisobegim Sohiba hayoti va faoliyati Hindiston, Pokiston, Bengaliya, Eron, Afg‘oniston, Tojikiston, Turkiya, Ozarbayjon, Tatariston va albatta O‘zbekiston xalqlari uchun nihoyatda qadrli, alohida ahamiyatlidir.

“Ayollar Zebosi” ma’nosidagi ismga sazovor etilgan Zebunnisobegim Sohibaning hayoti va ijodi o‘ziga xos sinoatlaru tilsimlarga boyligi bois nafaqat tadqiqotchi olimlarning, balki ko‘plab yozuvchilarning diqqat-e’tiborini jalb etib, turli asarlar yaratishga ilhom berganligi bejiz emas. Jumladan, “bengal adabiyotining Valter Skotti” deya sharaflangan taniqli adib Bonkimchondor Chottopadxay (1838–1894) ozining “Rad Singx” nomli tarixiy romanida Zebunnisobegim hayoti lavhalarini aks ettirgan. Shuningdek, farang adibasi Enni Kriger-Krinitski tomonidan yaratilgan “Tutqunlikdagi malika yoki Zebbinniso Avrangzeb qizi” romani ham 1990-yil Parijda chop etilgach, 2006-yil ingliz tiliga tarjima qilinib, Oksfordda nashr etilgan . Bu borada o‘zbek dramaturgi Uyg‘unning “Zebbunniso” dramasini ham alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Shoira Zebunnisobegim Sohiba hayoti va ijodiga doir turli ma’lumotlar Fazliyning “Majmuai shoiron” (Shoirlar majmuasi”), Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix” (Saylangan tarixlar) asarlarida va boshqa tazkiralarda qayd etilgan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida e’lon qilingan o‘zbek olimlari To‘xtasin Jalolovning “O‘zbek shoiralari”, Turg‘un Fayziyevning “Temuriy malikalar” kitoblarida ham Zebunnisobegim Sohiba hayoti va ijodiga alohida o‘rin ajratilganini ta’kidlash joiz. 1982-yil esa hassos olima Mahbuba Qodirovaning “Shoira Zebunniso” tadqiqoti “Fan” nashriyotida chop etilgan. Shoiraning she’rlari Erkin Vohidov, Munirxon Muinzoda kabi ijodkorlar tomonidan o‘zbekchalashtirilib, bir necha bor kitob holida nashr etilgan.

Zebunnisobegim Sohiba xususidagi turli ma’lumotlarni Eron, Afg‘oniston, Pokiston adabiyotshunosligi namunalarida ham uchratish mumkin. Xususan, Sherxoni Ludiyning “Mirot ul-xayol” (Xayol ko‘zgusi”), Bareliyning “Tazkirai shoiroti urdu” (Urdu shoirlari tazkirasi), “Tazkirat ul-havotun” kabi asarlarida, “Olami Islom” (Islom olami), “Qobul”, “Hunar va mardum” singari to‘plamlarda bu borada qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Zebunnisobegim Sohiba 1639-yilning fevral oyida Shohjahonobodda tavallid topgan. U boburiy hukmdor Shohjahon hamda Mumtozmahal farzandi - Avrangzebning to‘ng‘ich zurriyodi edi. Bo‘lg‘usi shoiraning onasi – Dilrasobonu Eron shohlari sulolasi - Safaviylarga mansub edi. Silsila bo‘yicha Boburning qizi Gulbadanbegim Zebunnisobegim Sohibaning katta momosi sanaladi.

Ma’lumki, Avrangzeb Olamgir, ya’ni Zebunnisobegim Sohibaning padari buzrukvori boburiylar saltanatining buyuk hukmdorlaridan biridir. Uning davrida boburiylar imperiyasi hududi shu qadar kengayganki, Avrangzebgacha va undan keyin taxtga o‘tirgan boburiyzodalar ham saltanatni bu qadar yuksaltira olishmagan.

Avrangzeb Olamgirning besh o‘g‘li va besh qizi ichida Zebunnisobegim Sohiba bolaligidanoq o‘z iqtidori bilan ajralib turardi. U o‘z davrining yetuk ustozlari – Maryam Otin hamda Mullo Javondan, shuningdek, shoir va alloma Mulla Muhammad Ashraf Isfahoniydan saboq oladi, falsafa, adabiyot, falakiyot kabi turli ijtimoiy va aniq fanlarni teran o‘rgana

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

boshlaydi. Zebunnisobegim Sohiba xattotlik san'ati sirlarini o'rganishga ham astoydil bel bog'lab, o'z husnixati bilan ko'plarni lol qoldirgan. Keyinchalik mohir xattotlarni yollab, ko'plab nodir asarlar ko'chirilishiga boshchilik qildi.

Zebunnisobegim Sohiba qadim o'zbek tili bilan birgalikda fors, arab, urdu tillarini chuqur o'rganib bordi. Manbalarda aytilishicha, u yetti yoshidayoq Qur'onni yod bilgan. Bolaligidan she'riyatda ham o'z qobiliyatini namoyon eta boshlagan. Ehtimol, otasi Avrangzeb she'riyatga moyil emasligini bilgani bois o'sha paytda o'ziga "Maxfiy" taxallusini olgan bo'lishi mumkin. Shoiraning vafotidan so'ng tartib berilgan va olti yuzga yaqin she'rlarni o'z ichiga olgan to'plamga ham "Devoni Maxfiy" nomi berilganligi bejiz emas.

Zebunnisobegim Sohiba umrining katta qismini ijodga, adabiyot va san'atga baxshida etdi. Asosan fors tilida asarlar yaratgan Zebunnisobegim Sohibaning ijodiy merosi sakkiz ming misradan ziyod bo'lib, g'azallar, yetti qasida, besh tarje'band, bir muxammas va boshqalardan iborat. Shuningdek, u Qur'onga sharhlar sifatida "Zeb ut-tafosir" (Tafsirlar ziynati) nomli asar ham yaratgan. Shoiraning "Zeb un-nashot" (Nash'alar ziynati) va tasavvuf falsafasiga doir "Munis ul-arvoh" (Ruhlarning sodiq do'sti) kabi risolalar yaratganligi haqida ma'lumotlat mavjud.

Zebunnisobegim Sohibaning uncha katta bo'lmagan devonidan birgina "Samarqand ushshog'i"day o'lmas va ohanrabo qo'shiqqa asos bo'lgan g'azal yetib kelgani ham uning naqadar benazir shoira ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, Zebunnisobegim Sohiba she'riyati o'ziga xos go'zalligi, ma'nodorligi bilan turli millat vakillari qalbida ehtirom uyg'otishi shubhasiz. Uning rus tiliga tarjima qilingan she'rlaridan iborat "Огонь и слёзы" kitobi Rossiyada bir necha bor chop etilgan. XX asr boshlarida esa Zebunnisobegim Sohibaning ingliz tiliga ikki variantda o'girilgan "Devon"i alohida-alohida nashr qilingan. Bu tarjimalarning birinchisi Magan Lal va Jessi D. Uestbruk, ikkinchisi esa Pol Uelley tomonidan amalga oshirilgan edi

Zebunnisobegim Sohiba ma'rifat, madaniyat, ayniqsa, adabiyot va san'at ravnaqiga munosib hissa qo'shishga intilgan. U o'z davrining yetuk ulamolarini, xususan, shoiru olimlarini maosh bilan ta'minlab turganligi manbalardan ma'lum. Hindiston musulmonlari orasida o'ziga xos dasturulamal vazifasini o'tagan "Fatvoyi Olamgiriy" (Shariat qonunlari majmuasi) asari Zebunnisobegim Sohiba bosh-qoshligida fors tiliga tarjima qildirilgan. "Olami Islom" tazkirasida Zebunnisobegim Sohiba otasi hukmdorlik bilan eggallay olmagan shuhratni ilm va odobi tufayli egalladi" deya ta'kidlanadi. Uning shoiri zamon, "Ma'nolar otasi" deya ulug'langan Mirzo Abdulqodir Bedil bilan qilgan mushoiralari tarix ichra ma'lumu mashhurdir. Mirzo Abdulqodir Bedil o'z qizi tarbiyasini Zebunnisobegim Sohibaga ishonib topshirgani, u qiz shoira bo'lib yetishgani haqida manbalarda qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, 1702-yil vafot etgan shoira Zebunnisobegim Sohiba Dehlidagi Zarzari qabristoniga Nizomiddin Avliyo, Amir Xusrav Dehlaviy kabi ulug' zotlar yoniga dafn etilgan.

Husnu nazokatda va fazlu malohatda benaziru betakror bo'lgan Zebunnisobegim Sohiba umr bo'yi yolg'iz yashab o'tgan. Bu borada ham qator taxminlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, buyuk Akbar taxtga talabgorlar soni kamroq bo'lishini ta'minlash maqsadida voris malikalarga oila qurishni taqiqlagan. Yana bir taxminga ko'ra, Shohjahonning

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

istagi bo‘yicha Zebunnisobegim Sohiba shahzoda Sulaymon Sikox bilan unashtirib qo‘yiladi. Lekin, keyinchalik shahzoda Avrangzeb farmoniga ko‘ra zaharlab o‘ldiriladi. Ayrim manbalarga ko‘ra esa Zebunnisobegim Sohiba yoshligida Oqilxon Roziy nomli yigit bilan sevishib qolgan. Biroq, bundan xabar topgan Avrangzeb yigitni qatl ettirgan va shundan so‘ng Zebunnisobegim Sohiba yuragida boshqa yor uchun o‘rin qolmagan. Umuman olganda, Zebunnisobegim Sohiba va uning otasi Avrangzeb Olamgir o‘rtasidagi munosabatlar masalasida ham talay taxminlar mavjud.

Boburiylar Osiyo, butun sharq tarixidagina emas, jahon tamadduni taraqqiyotida ham alohida mavqega, o‘ziga xos o‘ringa ega buyuk suloladir. Ezgu ideallar kuychisi, otashzabon shoira, boburiyzoda Zebunnisobegim Sohiba to‘g‘risida ko‘plab manbalar asosida serqirra tadqiqotlar, uning o‘ziga xos go‘zal obrazi mujassam badiiy asarlar yaratish davrning dolzarb talabi, kelgusi avlodlar oldidagi muhim ahamiyatli vazifadir.

Hindiston, Pokiston, Eron, Afg‘oniston, Tojikiston, Turkiya va O‘zbekistonda Zebunnisobegim Sohiba hayoti va ijodiga doir tadqiqotlar olib borish, bu boradagi tarixiy manbalarni aniqlash, jamlash va chop etish shoira haqidagi bizga noma’lum tafsilotlarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, Zebunnisobegim Sohibaning turli yillarda o‘zbek tiliga o‘girilgan she’rlarini to‘plab, tarjima qilinmaganlarini o‘girish va alohida kitob holida chop etish ham shoira ijodiy merosini boyitishda juda muhim. Zero, Zebunnisobegim Sohiba nafaqat o‘z zamonasining, balki barcha zamonlarning ziynati bo‘la olguvchi buyuk ijodkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Тўхтасин Жалолов. Ўзбек шоиралари. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970.

2.Зебуннисо. Мажмўаи шеърҳо. Нашриёти Давлати Тожикистон, - Сталинобод. 1958. - 255 б.

3.Тўхтасин Жалолов Нафосат оламида. Адабиёт ва санъат нашриёти, -273б.

4.Тўхтасин Жалолов. Гўзаллик оламида. Мақолалар, адабий тадқиқотлар. Адабиёт ва санъат нашриёти, -328 б.

5. Шарқ классиклари меросидан. Зебуннисо, Дилшод ва Анбар отинлар шеъриятидан. Ўзбекистон Марказий Комитетининг нашриёти, Тошкент – 1981.